

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022



ERNEST XEMINGUEY  
(1899-1961)

Chol qushlar va zimlesa, belirin o'sha qoldirg'ochlarga achiqib ketar va qushlar turmushil, qirin-qora va katta kuchli qushlarni hisobga olmayardagi, bizning kuri kechirishimizga qarayardida, ham juda sige. Okean gohisa shu qadar ham berishni bolar elan, hime uchun qushlarni manz bi dengiz qoldirg'ochlari singan nozik va shikasta qiliq jarayinlar. Okean sadoq va zo'zal, urmo u zibo tozakdan shunday shaf-qatsiz bolib ketadi, uning ustini ozig ilminda charyz urib shonig'is, olib va mangli ovoz bilen bir-birlariga jar belis uchjan su qushlar ungi intillaten bentnoye salib va mohi ko'rinishi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI



CONFERENCES.UZ

AVGUST  
№43

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

 +998 97 420 88 81 +998 94 404 00 00 [www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz) [www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
22-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-22**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-22**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Abdurazakova Mavluda Mamasidikovna, Mardiyeva Iroda G'aybullayevna</b> BIOLOGIYA DASRLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	7
<b>2. Rustamova Firuza Tolibovna, Ibragimova Gulrux Abduvaxidovna</b> O'SIMLIKLARDA KECHADIGAN SITOKINEZ JARAYONI.....	10
<b>3. Otajanova Oymonjon Seylixanovna, Masharipova Oygul Azadovna</b> BIOLOGIYA O'QITISH MAZMUNI, VOSITA, METOD VA SHAKLLARINING UYG'UNLIGI.....	12
<b>4. Qalandarova Mohira Sultanbayevna, O'razbayeva Gulzira Shuhrat qizi</b> HUJAYRA BIOLOGIYASIDA QO'LGA KIRITILGAN YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR .....	14
<b>5. Zayniyeva Surayyo Bahodirovna</b> TABIIY FANLARNI O'QITISHDA HAYVONOT OLAMI METODI ASOSIDA O'QITISH.....	16



## БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### BIOLOGIYA DASRLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Abdurazakova Mavluda Mamasidikovna**

Xovos tuman 7-maktab biologiya fani o'qituvchisi.

xov7maktab@mail.uz

**Mardiyeva Iroda G'aybullayevna**

Xovos tuman 26-maktab biologiya fani o'qituvchisi.

+998997661909

#### Annotation

Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga biologiya fanini o'rgatishning yo'llari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor biologiya darslarida zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda, o'quvchilarga biologiya fanini oson o'zlashtirishlariga yordam berishga qaratilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lif jarayoni, pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiya, multimedia vositalari

Biologiya darslarini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiya usullarini qo'llashjarayonida o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqoza etadi, bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib ular o'rtaida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishslash va hamjihatlik vujudga keladi.

Amerikaning "Street law" (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda yer yuzining ko'plab davlatlari tomonidan "asr"ga olingan va ta'lif makoniga o'mashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolligi, jozibaligi va ta'sirchanligidadir. Ular yordamida talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, jamoada ishslash, o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Quyida "Street law" dasturidagi "Ajurli arra" metodining mohiyatini yoritiladi.

Biologiya darslarida "Ajurli arra metodi" dan foydalanishning mohiyati shundaki, bu metoddan ko'pincha ma'ruza darslarida yani ma'lumot ko'p bo'lgan mavzularni yoritishda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metod bir necha bosqichdan iborat. Zoologiya darslarida "Bo'gimoyoqlilar tipi" "Qisqichbaqsimonlar" sinfi mavzusini o'qitishda har bir kenja sinfni jabraoyoqlilar, sefalokaridlar, maksillapodlar, chig'anoqli qisqichbaqalar va yuksak qisqichbaqsimonlarni guruhni 4-5 ta kichik guruhlarga ajratib, ularga har bir kenja sinf haqidagi qog'ozga tushirilgan ma'lumotlarni guruhlarga tarqatildi va ularga diqqat bilan o'qish topshirig'i beriladi. O'quvchilarlar topshiriqni bajarib bo'lgach, har bir guruh ichidan bir o'quvchi boshqa guruh ichiga borib, ularga o'qigan mavzusini yaxshilab tushuntirib beradilar. Shu tarzda o'quvchilar keng doiradagi mavzularni bir-biri bilan almashadilar. Keyin o'qituvchi o'quvchilarni savollar berish orqali yana mavzuni mustahkamlaydi.

Dunyo hamjamiyati tomonidan intellektual taraqqiyot asri deya tan olingan - XXI asr davlat, jamiyat va iqtisodiyotning rivojini innovatsion va yuqori texnologik yo'lga boshladi hamda bu jarayonda asosiy e'tibor keng ma'nodagi intellektual sohani tubdan modernizatsiya qilishga yo'naltirildi. Respublikamizda intellektual sohaning o'zagi bo'lmish, uzlusiz ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos «O'zbek modeli»ni hayotga tadbiq qilishga, bu esa o'z navbatida o'quvchilarning bilim darajasini kengaytirib, ma'naviy va intellektual meroslarimizga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni talab qiladi.

O'qitishning innovatsion texnologiyalari ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning



kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bo‘lib, ular ta’lim jarayonida yangidan yangi natijalarga erishish uchun imkoniyat yaratadi,multimediyali texnologiyalar asosida ta’lim berish esa o‘qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. O‘qitishning multimediyali texnologiyalarida maxsus texnik axborot vositalari:kompyuter, audio, kino, video va boshqa jihozlardan foydalanish tushunilib,kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g’oyalarini rivojlantiradi,o‘qitishning zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning imkoniyatlari bilan bogliq bo‘lgan mutloq yangi, hali tadqiq qilinmagan texnologik yo‘nalishlarini ochadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari va dasturlari - bu barcha ta’lim texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagogik innovatsion faoliyatning natijasi hisoblanadi. Innovatsion ta’lim - bu shunday ta’lim texnologiyalari va dasturlariki, unda pedagog innovatsion faoliyat natijasi bo‘lib, o‘qitilayotganlar innovatsion g’oyalarini yaratuvchisidir. Darsliklar hamda o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish ko‘p yillik ilmiy, amaliy, madaniy, estetik, ma’naviy tajribalarga tayangan holda amalga oshirilmog’i lozim. O‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimining ilg’or tajribalariga va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi.

O‘qitishning bir qancha interaktiv usullari bo‘lib, ularni qo‘llash orqali o‘qitish samaradorligini oshirishga, o‘quvchilar fikrlash qobiliyatini chuqurlashtirishga katta imkoniyat yaratiladi.Mazkur metodlar qatnashuvchilarni o‘z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undab, berilgan har qanday muammoga ko‘p sonli to‘g’ri echimlar topishga yordam beradi. Dars mashg’ulotlarida o‘tiladigan mavzu qirralarini qarama-qarshiliklarini ko‘rsata olish, sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o‘zaro munosabatlarini bildirib, himoya eta olish, asoslab berish, boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tinglay olish, baholash maqsadida ushbu metodni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu dars maqsadi birgalikda o‘qitishga ko‘maklashuvchi uslubiy yo‘llar ya’ni o‘quvchilarga jamoada o‘qitish yo‘li bilan bilim olishlari to‘g’risida tasavvur berishdan iborat.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati, avvalo o‘quvchilarning diqqati,eslab qolish qobiliyati, zehni, tasavvuri kabi bilim orttirishga bo‘lgan qibiliyatlarining qanchalik rivojlanganiga bog’liqdir. O‘quv- bilish faoliyatini intensifikatsiyalash, bilish faoliyatining sifat jihatdan yangi vositalardan foydalanish hisobiga o‘quvchilarning kam mehnat sarfi va resurslari bilan o‘zlashtirishining yuqori darajalarga erishishlarini bildiradi. Texnologik ta’lim jarayonida sub’ekt haqidagi masalalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib,innovatsiyali texnologiyalar bevosita ta’lim oluvchi bilan ta’lim beruvchining ijtimoiy munosabatlariga bog’liqdir.

Ta’lim -tarbiya jarayoni insонning yoshlik chog’idan boshlanmog’i va butun umri davomida ta’kidlanib turilmog’i lozim, bugungi kunning ta’lim tizimi adolatli va demokratik davlat kishilarini tarbiyalab etishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, milliy pedagogika nazariyasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish maqsadida ijtimoiy fanlarni o‘qitish mazmuni va uslublarini tubdan o‘zgartirib, milliy istiqlol g’oyasini yoshlar ongida shakllantirish zarur bo‘lib, ta’lim tarbiyaning barcha ta’lim dargohlarida samaradorlikni birdek oshirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tomoni ta’lim muassasalari darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimlidir.

Ta’lim tarbiyaga yangicha yondoshish ta’lim berish jarayonini ongli ravishda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangicha ta’lim tarbiya berishda milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish, ularni muhim tomonlarini tarbiyalash jarayoniga tadbiq etilsa, bu tadbirlar yaxshi samara beradi. Jamiyat ishonib topshirgan bu ulug’ vazifani bajaruvchi fidokor kadrlar o‘zları har jihatdan barkamol bo‘lmoqlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, pedagogik texnologiya usullar qo‘llanilganida o‘quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini egallaydi, bundan tashqari o‘qitish jarayonida yangi usullarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqoza etadi, bunda o‘quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o‘quvchi uchun ahamiyatga molik bo‘lgan muammoni hal etishga kirishib ular o‘rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishslash va hamjihatlik vujudga keladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g’risida» gi qonuni. Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1998 yil.
- 2 .N.S.Sayidahmedov, N.N.Indiaminov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” Toshkent, 2014 yil,
3. Internet ma’lumotlar



## O’SIMLIKLARDA KECHADIGAN SITOKINEZ JARAYONI

**Rustamova Firuza Tolibovna**

Samarqand vil. Samarqand tumani

29-maktab biologiya fani o’qituvchisi

Telefon: +99897 924 16 09

**Ibragimova Gulrux Abduvaxidovna**


Toshkent vil. Yangiyo’l tumani

45-maktab biologiya fani o’qituvchisi

Telefon: +99897 249 13 07

**Annotatsiya:** Maqolada biologiyani o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishi yo’llari bayon etilgan

**Kalit so’zlar:** Biologik ta‘lim, tajriba, kuzatish, mustaqil fikr, ijodiy ish.



Hayvon hujayrasida o’rtasida qisqaruvchi halqa shakllanar va u asta-sekin qisqarib borib hujayrani teng ikkiga bo’lar edi. O’simliklarda esa mana shu qisqaruvchi halqa o’rniga hosil bo’layotgan ikki yosh qiz hujayraning o’rtasida hujayra plastinkasi deb nomlangan, tarkibida pektin moddasi saqlaydigan to’siq hosil bo’ladi.

**Hujayra plastinkasining hosil bo’lish jarayoni quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:**

1) hujayra plastinkasining hosil bo’lish jarayonini boshqaradigan va jarayonni qo’llab-quvvatlaydigan ko’plab mikronaychalardan iborat fragmoplast hosil bo’ladi;

Shu yerda fragmoplast nima ekanligiga ozgina izoh berib o’tsam, u endoplazmatik to’rning hosilasi bo’lib, hujayra plastinkasining ikki tomonida uni tutib turadi. Xuddi stolning uzun-uzun oyoqlari kabi tasavvur qilish mumkin. Oyoqlar bu o’sha O’simliklarda hujayra devori mavjudligi sabab ulardagi sitokinez jarayoni hayvon fragmoplast va u endoplazmatik to’rning tarkibiy qismi.

2) bo’linayotgan hujayraning ikkala tarafidan sitoplazmadagi vakuolalar hujayraning bo’linish yuzasiga keladi va ularning o’zaro qo’shilishi hisobiga vakuolyar naychalar tizimi shakllanadi;

3) membrana naychalarining qo’shilishi davom etib, so’ng ular asta-sekinlik bilan membrana varaqlariga aylanadi, ushbu varaqlar yuzasida dastlab o’simlik polisaxaridi bo’lgan kalloza yotqiziladi, xuddi devorni shuvalgandek shu modda dastlabki membrana yuzasiga qoplanadi, undan so’ng selluloza va membranaga xos bo’lgan boshqa moddalar qoplanadi.

4) hujayra plastikasi hosil bo’lishida qatnashayotgan ortiqcha moddalar va ortib qolgan membrana bo’laklarining hujayra tomonidan qaytadan ishlanadi;

5) Va hosil bo’lgan hujayra plastinkasi ona hujayra devori bilan birlashadi.

Sitokinez jarayonida fragmoplast mitoz jarayonidagi bo’linish urchug’i qoldiqlari hisobiga shakllanadi va ular sitoplazma bo’ylab tarqalib yurgan vakuolalarning bo’linish yuzasiga kelishini ta’minlaydi. Ushbu vakuolalar tarkibida yangi qiz hujayralarning membranasi hosil bo’lishida qatnashuvchi turli xil lipid, oqsil va uglevodolar bo’ladi. Tadqiqotlar hujayra plastinkasining hosil bo’lishida asosiy manba bo’lib xizmat qiluvchi ushbu vakuolalarning manbai Golji majmuasi ekanligini ko’rsatgan.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, o’simliklarda sitokinez jarayonining sodir bo’lishi uchun Golji majmuasi ham, endoplazmatik to’r ham bir xilda faoliyat ko’rsatadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nishonboyev K.N, Hamrayeva F.A, Eshonqulova O.E. Tibbiyot genetikasi. Toshkent. “Abu Ali ibn Sino ” 2000-yil;
2. Maqsudov Z.Y. Umumiy genetika Toshkent. O'
3. Сасон А. Биотехнология: свершения и надежды. М.: Мир, 1997
4. www. google.uz
5. www. mail.ru
6. www. rambler. ru
7. <http://032.help-rus-student.ru/text/002.htm>



## BIOLOGIYA O'QITISH MAZMUNI, VOSITA, METOD VA SHAKLLARINING UYG'UNLIGI

**Otajanova Oymonjon Seylixanovna**

Urganch tumani 50-sون мактаб о'қитувчиси

Telefon: +998 (91) 424 86 51

os.otajanova\_50@umail.uz

**Masharipova Oyguл Azadovna**

Hazorasp tumani 19-сон мактаб о'қитувчиси

Telefon: +998 (99) 120 96 39

oa.masharipova\_19@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqola biologik fanlarni o'qitishda zamonaviy yondoshuvlar hamda biologik ta'linda o'qitish mazmuni, vosita, metod va shakllarning uyg'unligiv haqida.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy yondoshuvlar, o'qitish mazmuni, vosita, metod, shakl, kreativ, keys-stadi topshiriqlari, nostandard test.

Ma'lumki, davlat va jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda didaktikaning tarixiy va mantiqiy birlikning metodologik prinsipiqa muvofiq ta'lif tizimi oldiga muayyan davlat va ijtimoiy buyurtmalarni qo'yadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta'lif ijtimoiy sohadagi ustuvor yo'naliш deb belgilandi, oliv ta'lifni joriy etishning metodologik va nazariy asosi bo'lgan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da oliv ta'lif tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lif va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlagan va keyinchalik puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash kabi davlat buyurtmalari qo'yilgan. Jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, huquqiy-demokratik jamiyat qurish tamoyillari hisobga olingen holda yaratilgan "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" nomli risolada ta'lif tizimi oldiga ijtimoiy buyurtmalar qo'yilgan.

Ta'lif mazmunining uchinchi tarkibiy qismi ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish uchun ta'lif tarbiya jarayoniga muammoli ta'lif texnologiyasi asosida muammoli tarzdagi savol topshiriqlar, mashq masalalar ishlab chiqilishi, unda o'quvchilar tomonidan mantiqiy operatsiyalarini mustaqil bajarilishi nazarda tutilishi lozim.

Horijiy adabiyotlarda o'qitish jarayonida o'quvchilarda ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari bayon etilgan.

Mazkur adabiyotda o'quvchilarning shaxs va kelgusida kasbiy faoliyatida ijodiy fikr yuritish muhim o'rinni tutishi qayd etilgan.

Shuni qayd etish lozimki, o'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning bosqichlariga to'liq amal qilingandagina ko'zlangan natijani olish mumkin.

Talabalarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish uchun biologiya o'qituvchisi har bir mashg'ulotlarda ijodiy (kreativ) o'quv topshiriqlaridan foydalanish lozim. Biologiyadan foydalilaniladigan ijodiy (kreativ) o'quv topshiriqlari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Qiynlik darajasi ijodiy (kreativ) o'quv topshiriqlari

2. Keys-stadi topshiriqlari.

3. Nostandard test topshiriqlari.

Mazkur topshiriqlar o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga zamin yaratadi.

Biologiya o'qituvchisi mazkur o'quv topshiriqlarni tuzishda albatta o'rganiladigan mavzu mazmunini qayta ishlari, o'quv muammolarini vujudga keltirishi, o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llashini e'tiborda tutishi lozim.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar mazkur o'quv topshiriqlarni bajarish jarayonida muammolarni sezgi organlari orqali idrok etishi, tasavvur qilishi, abstraksiyalashi, muammoni



mantiqan mushohada qilishi, aqliy operatsiyalar tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash orqali muammoning yechimini topishi nazarda tutiladi.

Ta’lim mazmunining to’rtinchi tarkibiy qismi qadriyatlar tizimini tarkib toptirish bosqichlaridan avval qadriyatlarga aniqlik kiritish lozim.

Biologik fanlar ta’lim mazmunidagi qadriyatlar ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim bilan tarbiyaning uzviyilgini ta’minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Teng, P. S. 2007a. Accelerating the renaissance in BIOS science and technology – Part 1. Asia Pacific Biotech, 11(16): 1138–1145.
2. J.O.Tolipov . Biologiyani o’qitishda pedagogik texnologiyalar. –T. 2011 yil.
3. J.O.Tolipova, G`ofurov A.T Biologiya o’qitish metodikasi. –T. 2012 yil.



## HUJAYRA BIOLOGIYASIDA QO’LGA KIRITILGAN YUTUQLAR VA INNOVATSIYALAR

**Qalandarova Mohira Sultanbayevna**

Urganch shahar 28-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (97) 859 17 90

qalandarova.mohira\_28@inbox.uz

**O’razbayeva Gulzira Shuhrat qizi**

Gurlan tumani 29-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (97) 203 18 97

os.gulzira\_29@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hujayra biologiyasi sohasida qo’lga kiritilgan yutuqlar va innovatsiyalar hamda O’zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot institutlarida hujayra biologiyasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar keng yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Hujayra biologiyasi, fanlar akademiyasi, hujayra molekulyar biologiyasi, vaksina va zardoblar yangi avlodni, neytrofinlar olish, MET geni, MET onkogeni, nukleotidli polimorfizm.

O’zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo instituti qoshida Hujayra molekulyar biologiyasi laboratoriyasi faoliyat olib bormoqda. Laboratoriya 1967 yilda O’zR FA akademigi J.X.Hamidov tomonidan tashkil etilgan bo’lib, sitokimyo va elektron mikroskopiya va keyinchalik hujayra biologiyasi laboratoriyasi deb atalgan. 2012 yilda institutlar qo’shilishi munosabati bilan laboratoriya hujayra molekulyar biologiyasi nomi bilan atala boshlandi. 1992 yildan boshlab sut emizuvchilar ootsitlarini organizmdan tashqarida pishib yetishtirish tadqiqotlari bo'yicha qator ishlar bajarildi. Jumladan, qoramollar, quyonlar, sichqonlar, shuningdek odamlar ootsitlarini o’stirishning turli optimal usullari ishlab chiqildi. Asab tolalarini o’stiruvchi omil (ATO’O)ni tadqiq qilish bo'yicha ishlar olib borildi. O’rta osiyo teritoriyasida uchraydigan va umurtqalilarning turli sinflariga mansub 20 turdagи hayvonlarda ATO’Oning mavjudligi aniqlanib kompyuter dasturi yordamida oqsilning aminokislotalar ketma ketligiga nodir aminokislotalar aniqlandi va ATO’O oilasida 4ta va neytrofinlardan 7ta nodir aminokislotalar fragmentlari aniqlandi. ATO’O bo'yicha qilingan ilmiy izlanishlar 1990 yilda fan va texnika bo'yicha A.R.Beruniy Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Laboratoriya ATO’O faolligini turli biologik ob’ektlarda aniqlash bo'yicha Markaziy Osiyoda yagona xisoblanadi.

Laboratoriyanada hozirgi kunda quyidagi yo’nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

- 1.Lat yegan to’qimalar tiklanish jarayonida tirozinkinaz retseptorlari regulatorlarining o’rni.
- 2.Ingibitorlarni qidirish orqali saratonni oldini olish uchun MET onkogenidan nishon sifatida foydalanish.

3. Neytrofinlar olish (tabiy va rekombinant holda)

4. Tiklanish jarayonlarida neytrofaol omillar ta’siri.

5. Viruslarga qarshi vaksina va zardoblar yangi avlodini yaratishga nazariy yondoshish.

Laboratoriyada organizmda oqsillarning konservativ uchastkalariga antitana ishlab chiqarishlishi (ATO’O va gripp A virusi va sut oqsillari misolida) oldindan aytib beriladi va isbotlandi. Ilk yoshdagи (go’dak) bolalar ovqatlariga biologik faol qo’shimchalar tayyorlash texnologiyasi egallandi. Qalqonsimon bez (QB) saratoni bor kasallarda o’tkazilgan MET geni tirozinkinaz domeni mutatsion tahlili QB karsinomali hamda sog’lom odamlarda ikkita saytda 4300 va 4375 pozitsiyalarida bir nukleotidli polimorfizm borligi ko’rsatildi. MET geni tirozinkinaz domeni tadqiqotlari shuni ko’rsatdiki SH2-doking- saytda mos keluvchi 21- ekzonda 2ta saytda bir nukleotidli polimorfizm topildi. Olingan natijalar amaliy ahamiyatga ega bo’lib, farmokologik agentlar spektrini kengaytirish imkonini beradi. Onkoterapiyada, neyrodegenerativ kasallikkarda va psoriazni davolashda qo’llaniladigan preparatlар yaratish uchun faol moddalar olinadi.

Kelajakda asos hujayralarini o’stirib to’qimalar olish texnologiyalarini joriy qilish rejasi mavjud. Laboratoriya dunyoning nufuzli Key Neurotek, Dandi shaxri universiteti, Shotlandiya, Buyuk Britaniya universitetlari Laster shaxri universiteti bilan hamkorlikni yo’lga qo’yan. Laboratoriya bir qancha halqaro loyihalarda qatnashib keladi DAAB, Germanya, Buyuk Britaniya, Qirollik ilmiy jamiyati, SKOPES fondi, NATO, Belgium, Internatsonal Union Against Kanker.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. By Roland W. Scholz Environmental Literacy in Science and Society: From Knowledge to Decisions. New York, USA, 2011; Cambridge University Angliyskiy.
2. Escaler, Margarita, Paul Teng & Mely Caballero-Anthony. 2010. Ensuring Urban Food Security in ASEAN: Summary of the Findings of the Food Security Expert Group Meeting held in Singapore 4–5 August, 2010. Food Security, 2(4): 407–408.



## TABIIY FANLARNI O'QITISHDA HAYVONOT OLAMI METODI ASOSIDA O'QITISH

Zayniyeva Surayyo Bahodirovna

Zayniyeva Raisa Bahodirovna

BuxMTI akademik litseyi kimyo – biologiya fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlar asosida o'qitish usullari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** zigzag strategiyasi, birgalikda o'qitish, erkin fikrlash metodlari.

Zamonaviy ta'limga tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'limga jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Tabiiy fanlar kursi mazmunidagi muammoli masalalami o'qitishda «Keys»dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma'noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlami o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlaming tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ulami hal etish uchun o'quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi», «hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi» kabi mavzulami o'qitishda foydalanish mumkin.

O'yin ishtirokchilari doira bo'lib turishadi va o'zlariga birorta hayvonning nomini tanlashadi. 20 kishidan iborat guruh uchun 6 ta hayvonning nomi yetarli. Bir xildagi hayvonlarning nomi qog'ozga sonlar bilan yozilib, ularga shulardan birini olish taklif etiladi. Ishtirokchilar ma'lum bir hayvonlarni tanlab bo'lganlaridan so'ng ko'zlarini yumib, atrofda aylanib yuradilar va o'zları mansub bo'lgan turdag'i sheriklarini izlaydilar. Bunda hamma o'ziga xos ovoz bilan bir-birini chorlashi kerak (masalan, «ba-a-ba-a», «myov-myov», «vov-vov» va h.k.). Ikkita bir xil «hayvon» bir-birini topib olsa, ular qo'llarini mahkam ushlagancha keyingi shergini izlashga tushadilar va barcha shergini topib, toki alohida guruhal tuzilmaguncha davom etaveradi.

Bu kirish o'yini hisoblanib, u asosan ishtirokchilarda bir-birlariga nisbatan ishonch hissini hosil qiladi.

1. Bola bilan aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq – atvorning rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi. Mazkur metodika L.Krasil'nikova tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, «ha» va «yo'q demagin» deb nomlanadi.

Ko'rsatma: Biz sen bilan hozir bir o'yin o'ynaymiz. Men senga savollar beraman, sen ularga javob berasan. Lekin savollarimga «ha» va «yo'q» degan so'zlar bilan javob bermasliging kerak. Masalan, sendan «o'yinchog'ing bormi?» deb so'rasam, sen «ha» demasdan «Menda - o'yinchoq bor» yoki «O'yinchog'im bor» deya javob berishing kerak. Yoki men sendan «Odamlarning qanoti bormi?» deb so'rasam, sen «yo'q» demay, «Odamlarda qanot yo'q deb» javob berishing kerak, tushundingmi? Qaysi so'zlarini aytmashliging kerak?

Agar bola tushunmasa, ko'rsatma qaytariladi.

Metodika materiali 10 ta «ha» javobiga, 10 ta «yo'q» javobiga ega va 5 ta betaraf sovoldan iborat.

Natijalarni baholash.

To'g'ri javoblar – qoida buzilmay berilgan javoblar.

Noto'g'ri javoblar – qoidani buzib berilgan javoblar.

Eslatma: bolaning sukul saqlashi, bosh silkitishi, xatosini to'g'rilashi to'g'ri javob bo'lib hisoblanadi.

o'z-o'ziga bahoni oshirish;

- yomon xatti-harakatlardan muhofaza qilish.

Mashg'ulotlar strukturasi:



- muammolarni muhokama qilish;
  - bolalarни о'ylantirayotgan mavzularda suhbatlashish;
- Mashg'ulotlar 30 minutdan 40 minutgacha davom etishi mumkin.
- Mashg'ulotlarning tematik rejasi
- 1-mashg'ulot.  
Bizning xislarimiz va xatti-harakatlarimiz.
- 2-mashg'ulot.  
Nama uchun inson uyaladi?
- 3-mashg'ulot.  
Rost gapirishni o'rganamiz.
- 4-mashg'ulot.  
Nima uchun aybimizga iqror bo'lishimiz qiyin?
- 5-mashg'ulot.  
Bolalarning shikoyatlari.
- 6-mashg'ulot.  
Alamlarimiz ustidan g'alaba qilamiz.
- 7-mashg'ulot.  
G'azab-bu nima?
- 8-mashg'ulot.  
Biz har doim to'g'ri ishlar qilamizmi?  
Yomonlik va yaxshilik. Yomonlikni yengish mumkinmi?
- 1-mashg'ulot  
Maqsad: Bolalarda ximoya mexanizmlarini aniqlash, rasm chizish orqali salbiy emotsiyalarni bartaraf etishga o'rgatish.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
2. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 22-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000